

I.M.MELIQO'ZIEV

**KINOTELEOPERATORLIK MAHORATI
AMALIY BADIY FOTOSURATGA
OLISH JARAYONI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA
MADANIYAT INSTITUTI**

“Ovoz rejissyorligi va kinoteleoperatorlik
mahorati” kafedrası

Iqbol MELIQO‘ZIYEV

**KINOTELEOPERATORLIK MAHORATI
AMALIY BADIY FOTOSURATGA
OLISH JARAYONI**

*Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining
kinoteleoperatorlik va tele-radio rejissyorligi
bo‘limlari talabalari uchun*

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent-2014

Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek fotografiyasi tarixi fotografiyaning turli janrlari va ularni suratga olish usullari to'g'risida fikrlar yuritiladi.

Taqrizchilar:

A.I.Ismoilov O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti "Ovoz rejissyorligi va kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrası professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, davlat mukofoti sovrindori.

A.X.Arziqulov "O'zbekfilm" kinostudiyasi DUK oliy toifali kinooperatori.

SH.T.Xusanov Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti "Telestudiya tizimlari va ilovalari" kafedrası o'qituvchisi.

I.M.Meliqo'ziyev. Kinoteleoperatorlik mahorati: amaliy badiiy fotosuratga olish jarayoni. Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent., 2014 y. 78 bet.

MUNDARIJA:

<i>Fotografiya va fotografiya san'ati.....</i>	<i>5</i>
<i>Ko'rgazmali kompozitsiya va natyurmortlar.....</i>	<i>11</i>
<i>Manzara.....</i>	<i>19</i>
<i>Me'morchilik, interyer.....</i>	<i>26</i>
<i>Portret</i>	<i>33</i>
<i>Fotoetyudlar.....</i>	<i>41</i>
<i>Ilovalar.....</i>	<i>43</i>
<i>Adabiyotlar.....</i>	<i>76</i>

FOTOGRAFIYA VA FOTOGRAFIYA SAN'ATI.

Keling, fotografiyaning badiiy ijod usullari haqida soʻz yuritishdan oldin fotografiya va fotografiya san'ati haqida bir oz ma'lumot berib o'tsak.

Fotografiya (foto... va ...grafiya) – maxsus optik asbob fotoapparat yordamida yorugʻlik sezgir fotografik materiallarda (maxsus modda bilan qoplangan qogʻoz, shisha, plyonkada, yoki raqamli sensor va protsessor oʻrnatilgan raqamli fotokameraning ichki yoki tashqi xotirasida) obyektning oq–qora yoki rangli tasvirini hosil qilish usuli. Shunday usulda olingan suratlar ham fotografiya deb ataladi. Fotografiya bu fan, texnika va sanoatning muhim sohasidir. Yorugʻlikning fotoapparatga joylangan fotomaterial (masalan, fotoplyonka)ning yorugʻlik sezgir qatlamida yashirin fotografik tasvir hosil qilish xossasiga asoslangan. Ekspozitsiyalangan fotoplyonkaga kimyoviy–fotografik ishlov berilganidan soʻng koʻrinadigan tasvir (oldin negativ, keyin pozitiv) hosil boʻladi. Bu tasvir fotonusxa (fotosurat) deb ataladi. Ochiltirgich (proyavitel) tarkibiga metol, gidroksinon, paraminofenol, amidol, glitsin, dietilparafenildiamin (rangli tasvirlar uchun) va boshqa kimyoviy moddalar kiradi. Ochiltirilgan tasvirga mustahkamlagich modda (fiksaj) taʼsir ettirib, fotosurat mustahkamlanadi, yaʼni fototasmaning yorugʻlikka taʼsirchanligi toʻxtatiladi. Agar bunday qilinmasa hosil boʻlgan tasvir yorugʻlik taʼsirida yana kuyib ketishi mumkin. Mustahkamlagich sifatida natriy tiasulfat (giposulfit) asosidagi eritmalar (odatda, suvdagi 25%li eritmasi) qoʻllanadi. Baʼzi fotografik jarayonlarda «akslanuvchi» (obratimiy) fotomateriallardan foydalaniladi. Maxsus kimyoviy ishlov berilganidan soʻng ularda bevosita pozitiv hosil boʻladi.

Bir pogʻonali diffuzion fotografik jarayon, yaʼni fotoapparatning oʻzida bir vaqtda negativ va pozitiv tasvirni juda tez hosil qilish usuli ham yaratilgan. Fotografiya oq–qora (monoxrom) va rangli, statik va dinamik (kinematografiya), yassi (oddiy) va hajmli (stereoskopik yoki boshqacha aytganda 3D) turlarga boʻlinadi. Yorugʻlik sezgir materiallardan foydalanib hajmiy (fazoviy) tasvirlar olishning alohida

usuli golografiya deb ataladi. U XV asrda obyektlar tasvirini proyeksiyalab, so'ngra qog'ozga rasmini chizishdan boshlangan. Bu usulni Leonardo da Vinchi qo'llagan. Lekin fotografiya yorug'lik sezgir moddalar ma'lum bo'la boshlagach paydo bo'lgan. XVIII asrda dastlabki yorug'lik sezgir modda sifatida kumush tuzi topilgan va tadqiq qilingan. Buyuk Britaniyada 1802 yilda T.Uejvud AgNO_3 qatlamida tasvir olishga erishdi, lekin uni mustahkamlash (fiksaj) usulini topa olmadi. Fotografiya ixtiro qilingan vaqt 1839 yil deb hisoblanadi, chunki shu yili fransuz rassomi L.J.M.Dager fransuz olimi J.N.Nyeps bilan hamkorlikda Parij akademiyasiga fotografiya usuli haqida axborot beradi. Bunda yorug'lik sezgir qatlam sifatida kumush yoditdan foydalanilgan. Keyinroq obyektiv ixtiro kilindi (muallifi vengriyalik optik I.Petsval, 1840), ingliz ixtirochisi F. Skott Archer 1857 yilda ho'l yorug'lik sezgir material (kolloidli emulsiya) ga asoslangan fotojarayonni ishlab chiqdi, 1871 yilda uning vatandoshi R.Meddoks quruq yorug'lik sezgir materialdan foydalanishni taklif etdi. XX asrda fotografiya asosiy axborot va hujjatlashtirish vositasi bo'lib qoldi.

Optik sensibilizatsiya hodisasi kashf qilinganidan, plyonkali fotomateriallar, kumush birikmalari bo'lmagan fotomateriallar, yangi modeldagi fotoapparatlar yaratilganidan so'ng fotografiyani qo'llanish sohalari ancha kengaydi. Hozir fototasvirlarni bir zumda chiqarib beradigan fotoapparatlar mavjud. Fotografiya astronomiya sohasidagi tadqiqotlarda, astrofizikada, biologiya, kimyo, kinematografiya, televideniye, kosmonavtika, tibbiyot, fizika, matbaa, matnli va grafikli asl nusxalardan fotografik usulda nusxalar ko'paytirishda, kundalik turmushda keng qo'llanadi.

Fotografiya san'ati badiiy ijod turi bo'lib, u asarlari fotografiya vositalari asosida yaratiladigan tasviriy san'at turi. Badiiy madaniyatda fotografiya san'atining alohida o'rin tutishi fan (fizika, kimyo, optika) va texnikaning ma'lum yutuqlari zaminida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnikaviy san'at tarixida dastlabkisi bo'lganligi bilan belgilanadi. XX asr o'rtalarida texnikaviy san'at turlari guruhi

kinematografiya (kino san'ati), televideniye, radio san'ati, dizayn va boshqalar bilan boyigan. Fotografiya san'ati ijodning keng soxasiga aylandi hamda uning tarkibida hujjatli fotografiya san'ati, badiiy fotografiya va amaliy fotografiya san'ati (plakat, kitob bezagi, reklama va boshqalar uchun) mustaqil ko'rinishlar sifatida shakllandi. Bu yangi texnika vositasi – tasvirni muhrlash yuzaga kelgan kundanoq tasviriy san'at namoyandalari unga murojaat qildi. Fotografiya ixtirochisi Lui–Jak Dagger asli rassom bo'lgani uchun ham uning dastlabki suratlari rangtasvirning an'anaviy portret, manzara va natyurmort janrlari yo'lida yaratildi. Ilk davr fotografiyasi ochiqdan–ochiq rangtasvir asarlariga taklid qildi. XIX asr tasviriy san'atidagi fotografiyada o'zining ikkinchi nusxasiga ega edi. Badiiy fotografiya nomini olgan bu yo'nalish asoschilari fotografiya san'ati yuksak tasviriy madaniyatga erishishi, nafis san'atlar bilan uzviy bog'lanishi uchun qariyb 3 asr davomida taniqli ijodkorlarning katta mehnati singgan.

Fotografiya san'ati tarixida E. Maybrij (AQSH) tomonidan turli ko'rish nuqtalaridan bir necha kamerada suratga olingan suratlar muhim voqea bo'ldi. Bu yangilik tufayli XX asr I–choragida fotografiya san'atida real borliqni yangicha talqin qilishga qiziqish ortdi.

II–jahon urushi davridagi reportajlar fotografiya san'atining yangi taraqqiyot bosqichi bo'ldi. Urush fotoyilnomalarini yaratishda turli mamlakatlar fotoreportyorlari katta xissalarini qo'shdilar. 1950–80 yillar hujjatli fotografiya san'ati, jahonning eng yirik agentliklari tomonidan jo'natilgan reportyorlarning sayohatda yaratgan janrli fotografiyalari rivoji bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston hududiga XIX asrning II–yarmida Yevropadan kelgan ko'plab sayyoh–tijoratchilar va boshqa kasb egalari yurtimizni bebaho madaniy merosi, ayniqsa, ularni hayratga solgan mirobchilik (irrigatsiya) san'ati, nafis hunarmandchilik san'ati va odamlarning yashash tarzi madaniyatini aks ettirgan va bu tasvirlarni tarqatishgan.

Dastlabki o'zbek fotoustalaridan biri xivalik Xudoybergan Devonov 1907–08 yillar Peterburgga borib bu kasbni chuqur o'rganish

bilan birga o'sha davrning eng ilg'or foto–texnikasini olib kelgan va juda ko'plab o'ta yuksak tarixiy, badiiy mahorat namunalari bo'lgan fotosuratlar yaratgan.



Rasm 1. O'zbekistonlik eng birinchi fotograf va kinooperator.

O'zbekistonda chinakam fotografiya san'atining asos-chilaridan biri M.Z.Pensondir. U XX asrning 20-yillaridan to 50-yilgacha O'zbekistonning fotoyilnomasini yaratishga hissa qo'shdi. Uning «O'zbek madonnasi», «O'g'il savod chiqardi» va boshqa suratlari mashhurdir. 1940–yillarda O'zbekiston fotografiya san'ati ijodiy uslublari ko'paydi, janriy shakllar ortdi, fotograflar turli sohalar bo'yicha ixtisoslasha bordi (masalan, YE.Yuditskiy – me'morlik, K.Romeyev – teatr, A.Palexov – portret, R.Albekov – bolalar hayoti, R.Shamsiddinov, S.Beznosov – maishiy janr, S.Mahkamov – madaniyat bo'yicha ixtisoslashdi). O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi fotoseksiyasi, yirik korxonalarda tashkil topgan fotoklublar respublika fotografiya san'ati rivojida muhim rol o'ynadi.

Milliy istiqlol tufayli o'zbek fotografiyasi tamomila yangicha rivojlanish yo'liga ega bo'ldi. Jahon fotosan'atining o'ta muhim o'rni, ahamiyatini nazarda tutgan holda 2002 yilda O'zbekiston BA tarkibida «Toshkent foto uyi» tashkil etildi.

F.Qurbonboyev, R.Shagayev, N.Muhammadjonov, K.Minaychenko, M.Penson va D.Pensonlar, T.Zelma, V.Vyatkin, Tursun Ali, SH.Usmon, V. An, V.Sokolov, R.Yarullin kabi fotoustalar O'zbekiston fotografiya san'atida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

1–, 2–Xalqaro Toshkent foto biyennalesi «Mo'tabar qariyalarimiz», «Mahalla – men yashayotgan olam», «Suv – bu hayot demakdir» (2003 yilda BMT bilan hamkorlikda), shuningdek, 2003–2004 yillarda «O'zbekiston: sevgi izhori» ochiq respublika havaskor fotorassomlari uchun an'anaviy tarzda xalqchil fototanolvi o'tkazildi.

O'zbekiston fotoustalari nufuzli Xalqaro fototanolvlarda yuksak o'rinlarga sazovor bo'la boshladi (masalan, 1999 y. YUNESKO fototanolvi); Bryussel, Gaaga, Antverpen kabi shaharlarda «O'zbek mahallasi: odamlar, urf–odatlar, an'analar» fotoko'rgazmasi Yevropa bo'ylab namoyish etildi.

2003 yilda O'zbekiston Butunjahon badiiy fotografiya federatsiyasiga (Bosh qarorgohi Lyuksemburgda) haqiqiy a'zo qilib qabul qilindi.

FOTOSURATGA OLISH – BADIY IJOD JARAYONI. FOTOKOMPOZITSIYA FANI BO‘YICHA AMALIY ISHLAR.

San'atning xar bir turi o'ziga xos tiliga, texnik usullariga, o'z tasviriy-ifodaviy vositalariga ega bo'ladi. Badiiy ijodning boshqa turlaridagi kabi foto san'atda ham bexato sifatli natijalar olishni ta'minlovchi doimiy yozib qo'yilgan qonun-qoida va tavsiyalar bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Bir xolatda muvaffaqiyatli qo'llangan ma'lum kompozitsion usul, yoritish effekti, yorug'lik fil'tri boshqa xolatda umuman yaroqsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham xar bir suratga olish paytida aynan mana shu ma'lum xolat uchun zarur bo'lgan usullar, vositalar, texnikani qo'llash kerak.

Foto suratga olish xaqidagi kitoblarni o'qish bilan, undagi kompozitsiyalarni shunchaki takroblash bilan yoki yorug'likni ko'rsatilgan chizma bo'yicha o'rnatib foto mahoratni egallab bo'lmaydi. xar bir kinooperator-fotograf talaba o'z ishlari orqali butun texnik usullarni amaliy egallashi, mavjud vositalardan ongli ravishda foydalanishi lozim bo'ladi. Tasodifiylik emas, balki tirishqoqlik bilan olib borilgan ijodiy izlanish, o'z ishlariga o'ta talabchanlik muvaffaqiyat garovi bo'lib qolishi kerak. Fotografiya bu kinemotograf va televideniyeining asosidir. Bob materiallari fotografiyaning turlari va janrlarida, keyinchalik esa kinoekran va teleyekranda uchrab turadigan tasviriy va mavzuiy vazifalarni doimiy ravishda murakkkblashtirib borishi prinsipiga quriladi. negaki xarakatdagi fototasvir kino va televidiyeining asosi xisoblanadi.

KO'RGAZMALI KOMPOZITSIYA VA NATYURMORTLAR

Natyurmort (frans. *nature* va *morte* – jonsiz tabiat) –tasviriy san'at janri bo'lib, u insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muxitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi. deb ataladi. Tasviriy san'atda natyurmort asosan, dastgoxli rassomlikda ya'ni rangtasvir va grafikada, qisman haykaltaroshlikda asosan, relyefda ishlanadi. Natyurmortda «jonsiz buyumlar», masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalardan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari, stoldagi baliq, vazadagi gul va boshqalar ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, kushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo'ladi.

Fotografiya san'atida natyurmort – ma'lum mavzu asosida birlashtirilgan ko'proq jonsiz ashyolardan tuzilgan kompozitsiyadir. Fotografik natyurmort yaratish ustida ishlash kompozitsiya, yoritish usularini ishlab chiqish uchun ajoyib maktab bo'lib qoladi, fotografiyada tasvirning kompozitsiyasini, uning yorug'lik va rang yechimini belgilash maxoratini egallash jarayonida muhim va zaruriy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Natyurmortni suratga olishga tayyorlanayotganda ashyolarni tanlash, ularning miqdorini to'g'ri belgilash zarur. Dastlabki suratlar o'rganish xususiyatiga ega bo'ladi, bu suratlarda predmetlarning shakl va material fakturasini, yoritish effektlarini bera olish vazifasi xal qilinadi. O'quvchi talaba ish stolining bir qismi, asboblari, yozuv ashyolari, ovqatlanish stolining bir qismi, idishlar, meva va sabzavotlar, gullar, amaliy sanat namunalari bo'lgan predmetlardan natyurmort elementlari sifatida foydalanishlari mumkin.



Rasm 2. Natyurmort.

Kichikroq xikoyani tashkil qiluvchi syujetli natyurmortlarni suratga olish murakkabroq vazifa hisoblanadi. Yonayotgan sham, stol lampasi, cho‘ntak fonari, gugurt singari yorug‘lik manbalarini o‘z ichiga oluvchi natyurmortlar ayniqsa ifodali bo‘lishi mumkin.

Yuza yoki makonda joylashgan katta xajmli, ashyolarni suratga olishda katta xajm, masshtab munosabatlari, ashyolarning kadrda joylashuv xolati kabilarni suratga olish uchun avvalo suratga olish nuqtasi va obyektivning aniq fokus masofasini tanlash katta ahamiyatga ega. Natyurmorni yoritish uchun ko‘proq yorug‘likni kadr makoni bo‘ylab tekis va aniq taqsimlash imkonini beruvchi cho‘g‘lanma lampali yorug‘lik manбайдan foydalaniladi. Natyurmortni kunduzi tabiiy yorug‘likda suratga olish mumkin. Yorug‘lik shaklini aniqlash va yoritish farqini o‘zgartirish, shuningdek yorug‘likni modellashtirish uchun pastdan elektr yoritgichni qo‘llash mumkin.

Natyurmortlarni suratga olishda suratga olinadigan fonni to‘g‘ri tanlash va uni to‘g‘ri yoritish muxim vazifa hisoblanadi. Neytral fon sifatida oq, kulrang rangga bo‘yalgan yoki oqdan qoraroq rangga tuslanib boradigan qog‘oz yoki kardon varag‘i, mato bo‘ladigan foydalanishi mumkin.

Suratga olinayotgan interyer chuqur fon bo‘lib xizmat qilishi, unga atrof muxit, yorug‘lik manbai, deraza va xatto deraza ortidagi manzarani xam qo‘shish mumkin. Fon tasvirlanayotganda ashyolarning shaklini aniqlashga yordam berishi lozim, lekin tomoshabin e‘tiborini chalg‘itmaslik uchun o‘ta ola-bula va kontrastli bo‘lmasligi kerak.



Rasm 3. Natyurmort.



Rasm 4. Suratda interyer chuqur fon bo'lib xizmat qilmoqda.

Bir vaziyatda ashyolardan fonga tushayotgan soyani hosil qilmaslik uchun harakat qilinsa, boshqa xolatda kadрни kompozitsion tashkil qilish, yorug‘likni berishda mutanosiblikka erishish uchun tushirilayotgan soyadan massa, xromlangan shaffof, yaltiroq ashyolar pastki yorug‘lik (agar ashyo oyna ustida tursa) yoki qarshi yorug‘likdan (agar ashyo “yorug‘lik qutisiga” joylashtirilsa) foydalanib sun’iy yorug‘lik manbalarida suratga olinadi.

Fonni tus jixatdan yumshatish uchun suratga olinayotgan ashyo orqasiga to‘r, kapron (qora, kulrang, oq yoki rangli) tortilgan ramka o‘rnatiladi. Ramka ravshanlikning orqa chegarasidan uzoqroqqa noravshan tasvir zonasiga joylashtiriladi.

Tasvirlanayotgan ashyolarning kattalik ko‘lamini ko‘rsatish zarur bo‘lganda kattaligi yaxshi ma‘lum bo‘lgan, masalan gugurt qutisi, tanga yoki santimetrlarga bo‘lingan chizg‘ich kabilarni kadrğa joylashtirish mumkin.

Barglar, gullar, xasharotlarni mikro suratga olishda qo‘shimcha linzalar, fokus masofani uzaytirgich xalqalardan foydalangan xolatda ko‘zguli fotoapparat yordamida amalga oshiriladi. Bu soxaning o‘ziga xos xususiyati va o‘z usullari. Negaki juda qisqa fokus kengligi sharoitlarda ishlashga to‘g‘ri keladi.

Fotografiyada (Rasm 5.) uzaytirilgan xalqali “Zenit” fotokamerasi bilan suratga olingan “jonli notyurmort” ko‘rsatilgan. Suratga olish nuqtasi shunday tanlanganki, kuz bargida yiltirayotgan suv tomchilari qora fonda ko‘rinib turadi.

Natyurmortlarni shaffof oynali fotoapparat bilan suratga olgan maqul. Buning uchun obyektivlarini almashtirish mumkin bo‘lgan “Zenit”, “Olimlus”, “Kenon”, “Nikon” turidagi bir obyektivli ko‘zguli apparatlar bilan ishlash qulay.



Rasm 5. Makrofotografiyada suratga olingan fotosurat.

Rangli predmetlarni suratga olishda kadrlni tusi bo'yicha yorug'roq yoki qorong'iroq qilish imkonini beradigan turli yorug'lik filtrlari qo'llanadi. Polyarizatsiyalangan yorug'lik filtri reflekslar, yorug'lik nurlari va kadrdagi akslarni o'zgartirish imkonini beradi. Obyektiv oldida o'rnatilgan yorug'lik filtrini burash yo'li bilan shu'la va reflekslarni kerakli darajada kamaytirish, suratga olinayotgan yuzalar xajmi va shaklini aniqlash uchun ularning joylashuvini o'zlashtirish mumkin bo'ladi.



Rasm 5 b. Natyurmort.

MANZARA

Qishloq, tog‘, dala, me‘morchilik inshootlari, sanoat obyektlar kabilar bo‘lgan manzaralar bo‘lishi mumkin.

Odatda manzarada bo‘yoq, tuslarning ajoyib rang-tasvir uyg‘unligi tabiat tomonidan yaratilgan ifodali grafik qurilma kabilar kuzatiladi. Ba‘zan ajoyib shakldagi bulutlar va daraxtlar shakli, kuzgi barglar rangi va dengiz to‘lqinlari, tabiatni o‘zgartirib va bezab turgan inson qo‘li bilan yaratilgan ajoyib ko‘rinishlarga qarab to‘ymaysan kishi.

Manzara kompozitsiyasi ustida ishlayotganda fotograf tabiatga bo‘lgan o‘z munosabatini ifodalaydi uni jonlantiradi. Tomoshabinda fikr va xislar, estetik zavq uyg‘otadi.

Manzarani suratga olish ma‘lum tayyorgarlikni talab qiladi. Eng avvalo suratga olinadigan obyekt turli tomondan kuzatiladi, ifodaliroq bo‘lgan kompozitsion qurilma tanlanadi.

Bir necha maqbul nuqtani aniqlagach, obyektning asosiy nuqtadan surat olish kerak, so‘ngra zarur bo‘lganda variant qilib olinsa, suratni chop etishda tanlash imkoni bo‘ladi.

Suratni ko‘rgach tomoshabin muallif fikrini tushunib olishi, bosh obyektning ko‘rishi lozim bo‘ladi, negaki suratga olish aynan shu maqsadda amalga oshiriladi. Agar manzara kompozitsiyasi ikki yoki bir necha mustaqil kadrlarga bo‘lishi mumkin bo‘lsa, bu suratni yaxshi olinmaganligidan darak beradi, negaki kompozitsiya markazi, kadrlarning ayrim qismlari orasidagi o‘zaro aloqa bo‘lmaydi.

Tez yurib borayotgan avtomobil, asta suzayotgan bulut, qadam tashlayotgan odam singarilarni manzaraga uyg‘unlashtirib yuborish uchun ularga kadrda joy nazarda tutish zarur, bunda xarakatdagi obyektning yo‘nalishi va tezligini xisobga olish, suratga olish uchun qulay paytni kutish kerak bo‘ladi.



Rasm 6. Manzara.

Ob-havo va tabiiy yoritish sharoiti tasvirlanayotgan manzara xususiyatiga jiddiy ta'sir qiladi. Manzarani xar qanday fasl, xar qanday ob-xavoda suratga olish mumkin. Eng muhimi xar bir xolatda suyuqetga mos keladigan, surat mazmuni, mohiyatini to'laroq va ifodaliroq ochishga yordam beradigan yoritish sharoitini tanlashdir.

Yoritish sharoiti yo'nalishni tanlaganda xisobga olinadi. Agar suratga olish paytida quyosh fotografning orqasida bo'lsa, yoritilayotgan ashyolar yaxshi ko'rinadi. Yondan yoritilganda obyektlarning xajmliligi aniqroq ko'rinadi. Ko'p xolatlarda yorug'likni oldindan-yondan yo'nalishi tanlanadi, bunda suratga olinayotgan obektning xajmliligi saqlanib qoladi va ko'rinadigan soya qismlar kichrayadi (ular ko'proq qo'shimcha yoritishni talab qiladi).

Kompozitsiyani ko'p planli tuzish makonni qayta yaratish imkonini beradi.

Ertalab va kechki payt quyosh pastda turganda gorizontal joylashgan yuzalarda atrofdagi ashyolardan uzun soyalar paydo bo'ladi, vertikal yuzalar esa maksimal yoritiladi.

Choshgoxda manzara asosan yuqoridagi tushadigan nur bilan yoritiladi. Yoritish katta farq seziladi, predmetlardan tushadigan soyalar qisqa bo'ladi. Yoritishda katta kontrastlilik seziladi.

Ko'pincha manzara predmetlar shaklini yaxshi ko'rsatuvchi, havo oqimi effektini ko'paytiruvchi, predmetlar, yer, maysa, suv yuzasi, qor, muz va boshqalar shaklini ochishga imkon beruvchi nazorat yoritish orqali amalga oshirishga intilinadi.

Suratga olish amaliyotida xavo oqimini qisman yoki to'la bartaraf etish vazifasi turishi mumkin. Buning uchun pushti va qizil yorug'lik filtirlari qo'llanadi, panxromatik plyonkada suratga olinadi.



Rasm 7. Tumanli manzara.

Kunduzgi qish manzarasini suratga olishda yorug'lik qor yuzasidagi xar qanday notekislikni juda yaxshi ochib beradi. Fotografiya birinchi planda qor va soya shaklini aniq ochib beradigan suratga olish nuqtasini tanlashi kerak. Negaki suratga olinadigan katta maydonni yaxshi yoritilmagan qor tashkil qiladi, ekspozitsiyani shu maydonga qaratish zarur bo'ladi. Shunday sharoitda qizil yorug'lik filtri bilan suratga olib va kadrda o'ta yorqin uchastka bo'ylab ekspozitsiya qilib, bu kadr agar quyosh yorug'ida suratga olinsa-da fotografiyada shartli tungi yoritish ko'rinishini xosil qilish mumkin.

Kechki, tungi yoritish ko'rinishini bir necha yo'l bilan xosil qilish mumkin. Masalan, yetarli darajada yoritilgan tungi obyektlarni suratga olishda o'ta sezgir plyonkada lahzalik (yoki sekinlashtirilgan) viderjka va yorug'lik kuchiga ega bo'lgan obyektivdan foydalaniladi. Xuddi shunday tasvirni o'rtacha sezgirlikdagi plyonkani uzoqroq ochilgan xolda ushlab turib va obyektivni 5, 6-11 gacha diafragmalab olish mumkin. Oqshom tushganda suratga olish tun ko'rinishini xosil qilish uchun maqbul bo'ladi. Suratga olish obyekti va suratga olish nuqtasi avvaldan tanlanadi, yorug'lik sharoitini bir necha daqiqa aniqlikkacha kutiladi (kadrda osmon va yerdagi obyektlar yorqinligi munosabati xisobga olinadi).


Kunduz paytida "tun" effektini yaratib suratga olish tasvirda tungi yoritishning shartli ko'rinishi yaratish imkonini beradi.

Bu soxadagi ma'lum usullardan quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: yorqinlikning katta intervali bo'lgan obyektlarning eng yuqori yorqinligini ko'rsatish, masalan buni kadrda quyosh kiritilgan paytda yorug'lika qarshi suratga olishda qo'llanadi. Qoramtir tusni yaratish va quyoshdan tushayotgan nurni yengib o'tish uchun pushti, qizil, kulrang, bosqichli-kulrang yorug'lik filtrlaridan foydalanish mumkin.


Kunduzgi suratga olayotgan obyekt, uning muxim syujet qismini intensiv yoritishdan foydalanib oqshom ko'rinishini yaratish mumkin. Agar suratga olinayotgan bo'lsa, unda namoyish to'la yoritish

sharoitida olib boriladi, bunda fon va atrofdagi ashyolar mukammal bo'lmay qoladi va foto bosmalashda qora tusda qayta ishlanadi.

Suratga olish paytida obyektiv oldiga o'rnatiladigan turli yorug'lik filtrlari va uchlik qurilmalarini qo'llab havo to'liq bulutli bo'lgan paytda xam shartli oqshomgi ko'rinishni xosil qilishi mumkin. Bunda suratga olinayotgan obyekt yorug'lik manbalari bo'lishi, kadrning ayrim qismlari jadal yoritilishi kerak.



Rasm 8 a. Oqshom manzarasi.



Rasm 8 b. Oqshom manzarasi.

MEMORCHILIK, INTERYER

Tarixiy va zamonaviy me'morchilik yodgorliklari, sanoat va axoli istiqomat binolari kabilarni suratga olishda turli vazifalar qo'yilishi mumkin. Masalan, texnik, tadqiqot maqsadlarida foto xujjat qilinadi, gazeta, jurnal maqolalari uchun reportaj-axborot tayyorlanadi, nafaqat binolar, balki odamlar ham ko'rsatiladi, yodgorliklar, binolarining ko'rimlilik xususiyatlarini ochib berish, me'morchilik inshootining g'oyaviy-badiiy mazmuni, me'mor fikrini berish maqsadida foto surat olinadi.

Tarixiy me'morchilik yodgorligini ko'rib chiqish, o'rganish va suratga olishni bilish fotograf uchun katta ahamiyatiga ega. Bunda bino qiyofasi qaysi nuqtadan, qanday yorug'likda olinsa ifodalibroq bo'ladi, me'morchilik inshootiga atrof manzarani qanday uyg'unlashtirish mumkin degan savollar paydo bo'laveradi. Binoni umumiy ko'rinishda tasvirllovchi suratga o'rta va yirik planlar, ayrim xususiyatlar, material shaklini, o'sha davr ko'rinish texnikasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi bezaklarni qo'shimcha qilish mumkin. Me'morchilik inshootini suratga olishga kirishishdan avval yodgorlik yaratilish tarixi bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda san'at tarixi bo'yicha kitoblar, ayrim monografiyalar, muzeylarda saqlanayotgan albomlar, materiallar, suratlar va rangtasvir asarlari yordam beradi.

Ko'p xolatlarida bino bir oz yonroq tomondan suratga olinadi, bunda uning shakli, balandligi va uzunligi yaxshi ko'rinadi. Kadrda aks etgan osmon, daraxtlar, boshqa binolar asosiy obyektning me'morchilik shaklini anglashga imkon berishi kerak. Tegishli farqlarni yaratish uchun rangli va polyarizatsiyalangan yorug'lik filtrlaridan foydalaniladi.

Suratga olish nuqtasini aniq belgilab olish uchun binoni to'la aylanib ko'rish, qaysi yo'nalish qanday balandlikdan suratga olish maqulligini mo'ljallash zarur bo'ladi. Kadrda bezakdor muxitni yaratish uchun (masalan, gullar, daraxt shoxlari yoki darvoza, to'siq panjaralari kabilar) suratga olish nuqtasi tanlanayotganda birinchi

plandan foydalanish mumkin. Ba'zan suratga olish nuqtasini binoning suvdagi aksi ko'rinadigan qilib tanlanadi, bunda devorlar daraxtlar bargi orqali tushib turadigan quyosh nuri bilan yoritiladi. Ko'p planli kompozitsiyaning barcha elementlari moxiyatan tasvirlanayotgan me'morchilik inshooti bilan bog'liq bo'lishi, uni boyitishi, ifodaviy bezak sifatida xizmat qilishi zarur.

Suratga olish paytida ko'pincha osmon va binoni kesib o'tgan simlar, eski qiyshiq simyog'ochlar, siniq devor va boshqa keraksiz predmetlar xalaqit beradi. Oxir-oqibatda suratga olish nuqtasini buning uchun belgilangan vazifa, uning maqsad yo'nalishi belgilaydi. Bir xolatda kadrni simmetrik tuzish mumkin, bunda bino me'mor tomonidan ko'rish uchun maxsus mo'ljallangan nuqtadan olinadi, boshqa xolatda (bu ko'proq uchraydi) vazifa me'morchilik obidasi xaqida bir butun obrazli tasavvur yaratish, suratda uning shakli, xajmi, mutanosibligini berish kabilardan iborat boladi. Ko'pincha kadrda chog'ishtirish maqsadida inson, sayyohlar guruxi, quruvchilar ko'rinishi qo'shib qo'yiladi.

Baland me'morchilik inshootlarining past va yuqori nuqtalaridan suratga olinganda tasvirda fotoapparatni yuqori yoki pastga qaratish oqibatida vujudga kelgan perspektiv xatolik bilinib qoladi (Rasm 9). Xosil bo'layotgan "bino qiyshiqqligini"yo'qotish yoki kamaytirish uchun maxsus obyektiv ("shift-obyektiv") yoki kasseta qismi xolatini o'zgartirish mumkin bo'lgan fotoapparatlar qo'llanadi. Negativ tasvirni tuzatish, ya'ni o'zgartirish fotosuratni nashr etish jarayonida mumkin bo'ladi. Bunda foto qog'oz yoki negativli obyektiv va kadrlovchi ramka egilishi va foto qog'oz yuzasini o'zgartirish bilan erishiladi. Ba'zan esa bunday tasvirning egrilashuvidan qandaydir effekt xosil qilish uchun, atayin bu egrilashishni kuchaytirib badiiy maqsadlarda foydalaniladi.



Rasm 9. Pastki rakursdan olingan arxitektura inshoati.

Agar katta format talab qilinsa, binoni suratga olayotganda keng formatli fotoplyonkadan foydalanish tavsiya etiladi. Suratga olish paytida keng formatli fotoplyonka qo'llab sifatli fototasvir xosil qilish mumkin.

Interyerni, ya'ni binoning ichki qismini suratga olishda tabiiy yorug'lik ko'rinishi, chiziqli perspektiva, kadri ko'p planli tuzish kabi usullar orqali interyer chuqurligini berish vazifasi qo'yiladi.

Atrofdagi fon – shaxar, qishloq manzarasi bilan bevosita bog'liq zamonaviy interyer bunga misol bo'lishi mumkin. Bu xolatda nafaqat interyer makoni ko'rsatiladi, balki deraza yoki eshik tuynuklariga manzara foni xam uyg'unlashtirib yuboriladi.

Suratga olish nuqtasidagi vertikal chiziqqa qaramasdan fotografiyada makoniy qisqartirmasdan parallel chiziqlar bilan berish mumkin. Bunga ikki yo'l bilan erishish mumkin, ya'ni suratga olish paytida kamerani plyonka yuzasi qat'iy vertikal joylashgan xolatda o'rnatiladi, agar buning iloji bo'lmasa tasvirni bosma chiqarish jarayonida o'zgartirish mumkin.

Ekspozitsiyani hisoblashda tabiiy fon va interyer polini fototasmada yetarlicha aks etishini ta'minlashga asosiy e'tiborni qaratish juda muhimdir.

Tasavvur qilaylik, ekspozitsiya holatini aniqlab biz fon yorqinligini o'lchaganda 8 diafragma va 1/10 sek viderjkani, yoritilgan fon yorqinligini o'lchashda esa 4 diafragma va yuqoridagi viderjkani olamiz. Shunday qilib plyonkaning yetarli darajadagi kengligiga tayanib 5,6 diafragma va 1/10 viderjkada suratga olish mumkin.

Suratga olish nuqtasini tanlayotganda fotograf eng avvalo bosh, muhim jixatni belgilab olib, uni kadrda aks ettirishga xarakat qiladi. Masalan, bir holatda tasvirlanayotgan interyerda uning ko'proq makonini qamrab olish asosiy vazifa bo'ladi. Buning uchun keng burchakli obyektivdan foydalanish vazifasi qo'yiladi. Boshqa xolatda esa yirik ko'rinish, masalan, devoriy suratning umumiy ko'rinishi, jixozlarning bir qismini tasvirlash talabi qo'yiladi.

Interyerni keng burchakli obyektiv bilan suratga olayotganda apparat odatda meyordagi balandlikda, ya'ni inson ko'zi balandligida

o'rnatiladi. Fotoapparat yuqoriga yoki pastga qaratilganda ayniqsa vertikal chiziqlarda aniq ko'rinadigan makoniy nuqsonlar paydo bo'ladi. Zinapoya, balkon, shift kabilardan suratga olayotganda interyerni suratlarini rakursli tuzish maqul bo'ladi. Agar keng burchakli obyektiv bo'lmasa, obyektiv fokus masofani o'zgartiruvchi maxsus o'rnatma linzalardan ham foydalanish mumkin.

Suratga olish nuqtasini tanlayotganda interyerdagi tabiiy yorug'lik tarqalishi sharoitini xisobga olish zarur. Turli yoritish sharoiti, kunning turli vaqti, quyoshli va bulutli paytda u yoki bu interyer qanday ko'rinishda bo'lishini kuzatish nixoyatda zarur. Bunday kuzatishlar tanlangan nuqtadan suratga olish uchun yoritish sharoitlarini to'g'ri tanlashga imkon beradi. Ular interyer, binoni qanday tasavvur qilish, yoritish, quyosh nuri va bulutli xavo paytini qanday qilib to'g'ri tanlash, quyosh nurini to'g'ri yo'naltirish kabilarda foyda beradi.

Agar kadrda eksponometriya nuqtai nazaridan deraza, ochiq eshik (quyosh nurida suratga olinayotgan bo'lsa) yoki yoniq yorug'lik manbai qo'shilgan bo'lsa yorqinlik oralig'i juda katta bo'lib ketadi. Kadrda faqat devorlar, pol va shift oyynasiz va oldingi plansiz kiritilsa yorqinlik oralig'i nisbatan qisqaroq bo'ladi.

Yorug'lik kontrastini pasaytirish uchun fotoapparatning yoritish manбайдan (yorituvchi tebranuvchi) foydalanishi mumkin. Interyerda tabiiy nurdan yaratilayotgan yoritish qanchalik kuchli bo'lsa, qo'shimcha yoritish shunchalik kuchli bo'lishi kerak. Ayniqsa impuls lampasi yordamida qo'shimcha yorug'likdan foydalanilganda qo'shimcha nur qaytishi va yorug'lik zarralari (moy bo'yoqli devorda, oynada, ko'zguda sirlangan yuzalarda), shuningdek birdan uchrab qoladigan soyalar bo'lmasligi kerak.



Rasm 10. Xiva. Ichan-Qal'a Jo'me masjidi.

Agar interyer qorong'i, undagi yoritkichlar esa o'ta yorqin bo'lsa (qandillar, bra, chiroqlar) suratga olish ikki ekspozitsiyada bajarilishi mumkin: dastlab berilgan yorug'lik manbalarida qisqa manbalarida qisqa viderjkada, so'ngra aynan shu kadrda (fotoapparat shtativga o'rnatilgan bo'ladi) kadrda sun'iy yorug'lik manbalarida uzoqroq viderjkada suratga olinadi.



Rasm 11. Samarqand. Registon tarixiy arxitektura kompleksi.



Rasm 12. Buhoro.

PORTRET

Portret (frans. portrait – tasvir) – tasviriyl san’at janri bo‘lib, real hayotda mavjud bo‘lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo‘lgan xayoliy qiyofalarning tasviri. Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, foto san’atining muhim janrlaridan biri.

Fotografik portretni ko‘zdan kechirayotganda nafaqat modelning tashqi xususiyatiga baho beriladi, balki portret obraziga chuqurroq kirib borishga xarakat qilinadi, negaki uning ifodaviyligi obyektiv (yuz ifodasi, qomat ko‘rinishi) va subyektiv (tasviriyl ifodaviyl o‘ziga xosligi) singari ikki asosiy omilni o‘zida mujassamlashtiradi. Fotograf – talaba insonni tasvirlashda uning tashqi ko‘rinishi orqali o‘z xisssiyotlari, kuzatishlari va kechinmalarini ifodalashga xarakat qiladi. U inson o‘zining xilma-xilligi va noyobligini ko‘rsatayotgan holatni tanlaydi. Nazorat ishini bajarayotib talaba-fotograf anchayin ifodali vaziyatni ko‘rsatishi, buning uchun tasviriyl vosita imkoniyatlaridan to‘la foydalanishi zarur. Fotomodellar portretlari quyidagicha suratga olinadi:

1. Mayin taralgan nur bilan yoritilgan, ya’ni soyasiz portret.
2. Nur-soya usulida yoritilgan – yuzning xajmiyl shaklini ochib berish uchun yo‘naltirilgan yorug‘lik, ya’ni chiuvchi yorug‘lik bilan yoritilgan portret.
3. Tasviriyl, to‘latuvchi, kontur, fon va modellovchi singari turli yorug‘likni qo‘llash orqali yoritilgan portret.

Talaba yuqoridagi topshiriqni bajarayotib badiiyl obraz yaratishda yoritish asboblaridan ongli ravishda foydalanishga organishi lozim.

Portretni suratga olish xam boshqa janrlar kabi reportaj yoki saxnalashtirilgan usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoitlarida portretni suratga olish chog‘ida sodir bo‘layotgan voqealarning haqqoniyligini saqlab qolish, suratga olinayotganning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish, vaziyatni ifodalay olish vazifasi qo‘yiladi.



Rasm 13. Tabiat sharoitida olingan portret.

Har safar suratga olish nuqtasi qanday tanlanadi, qaysi fondan foydalaniladi, suratga olishda eng yaxshi holat qanday tanlanadi singari bir qator doimiy savollar paydo bo'laveradi.

Insonni bevosita ish jarayonida, o'zining odatdagi ishi bilan shug'ullanayotgan paytida, dastgox oldida, chizma taxta ustiga engashgan holatda, mashina yonida va boshqa turli vaziyatlarda suratga olish mumkin. Suratga olinayotgan boshini ko'targan, suhbatdoshga qarab turgan vaziyatni ilg'ab olish kerak.

Birinchi holatda tana holati, yuz ifodasi, mehnat jarayonidagi holat tabiiy tasirvirlanishi mumkin, lekin bu egilgan holatda yuz ifodasi doim ham ko'rinavermaydi. Ikkinchi holatda yuz ifodasi, ko'zlar yaxshi ko'rinishi mumkin, ammo ish bilan shug'ullanayotgan odam ko'rinmay qoladi.

Ishlab chiqarish sharoitida yoki pavilyonda portret yaratayotib fotograf texnologik jarayon haqida tasavvurga ega bo'lishi, o'z oldida turgan vazifani tushunishi kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlar nafaqat mavzuviy jixatdan muhim syujetni tanlash, balki xato qilib qo'ymaslik imkonini beradi.

Suratga olishga tayyorgarlik jarayonida fotografinsonni diqqat bilan kuzatadi, eng maqbul vaziyatni tanlaydi, zarur bo'lganda bir necha dubl va variantlar qiladi. Tanlangan holatda butun ishning qimmatini bog'liq bo'ladi: bu yoki insonning jonli, ifodali tasviri, yoki yuzning shunchaki ifodasi bo'lib qolishi mumkin. Portret kompozitsiyalarning mavzusi hilma-xil bo'lishi mumkin. Fotograf uchun xonada cho'g'lanma lampalar yordamida o'quv portretlarini suratga olishni mashq qilishi muximdir. Bunda suratga olinuvchining soch turmagi, libosi, imo-ishorasi, tana holati kabilarga e'tibor berishi zarur. Portretlar suratga olish chog'ida quydagilardan foydalaniladi:

1. Chizuvchi yorug'lik.
2. To'ldiruvchi yorug'lik.
3. Kontur yorug'lik.
4. Fon yorug'ligi.
5. Modellovchi yorug'lik.



*Rasm 14. Pavilyon sharoitida nur-soya usulida
olingan portret.*

Bu yoritish asboblari yordamida portret suratga olinayotgan insonning xajmi va mimikasiga asosiy e'tibor beriladi. Ifodalibroq nur-soya tasvirni tinimsiz izlash zarur.

Portretni suratga olish doim suratga olinayotgan insonning individual hususiyatlarini xisobga olgan holda amalga oshiriladi. Suratga olish nuqtasining tanlash jarayonida fotograf shu insonning yuz tuzilishi hususiyatlarini aks ettirishga, individual hususiyatlarni ochib berishga, suratda inson xarakterini talqin etishga xarakat qilishi zarur.

Tasvir ko'lamini tanlash nafaqat kompozitsion, balki ma'noviy ahamiyatga ham ega. Fotoapparat bilan yuzga yaqinlashish yoki uzun fokusli obyektiv bilan suratga olish orqali tomoshabin e'tiborini kinofilm yoki videofilmni suratga olish chog'ida zarur bo'lgan yuz yoki yuz qismiga qaratamiz.

Suratga yirik planda aks ettirish maqsadida nixoyatda yaqin masofadan yuzni suratga olganda, ayniqsa buning uchun keng burchakli obyektiv qo'llanganda yuz shaklini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun portret suratga olish paytida tahminan 1,5 metrga teng bo'lgan "havfsizlik masofasi" deb nomlangan masofani saqlash kerak (to'g'ridan suratga olganda 1 metrgacha qisqartirish mumkin).

Yirik yoki juda yirik yuzni, yoki gips qomatni tasvirlash uchun $f'=50$, $f'=70\text{mm}$ fokus masofali meyordagi obyektivdan foydalanish zarur.

Portret fotografiyasida fon, uning tusi va yoritish xususiyatini tanlash muhim ahamiyatga ega. Tus va yorqinlikni taqsimlash bo'yicha fon asosiy suratga olinayotgan obyektga bo'ysundirilishi kerak. Fonlar yassi, bir xil (bir tekis) rangda, neytral yoki bezak tasvirli bo'lishi, bezakdor mato, tyul va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Fon chuqur, turli predmetlar qo'yilgan, turli mebellar qo'yilgan, yonayotgan yorug'lik manbai kabilardan iborat bo'ladi. Atrof-muhit suratga olish uchun maxsus tanlangan va tayyorlangan bo'lishi mumkin.



Rasm 15 a. Bola portreti.



Rasm 15 b. Bola portreti.

Fakturasiz, masalan, neytral oq yoki qora fon, suratga olinayotganni yorqin tusda, siluet ko‘rinishida yorug‘ fonda qora yuz va aksincha yoritilgan yuz qora fonda hamda kontrastli rangda bo‘lishi mumkin (Rasm 16).

Kontur yorug‘lik bilan uyg‘unlikda siluet tasvir tuzish rasmga ko‘rsatilgan. Yagona yorug‘lik manbai suratga olishda suratga olinayotgan insonning orqa tomonida turadi. Yoritishda o‘ng va chap tomonlardan fon yoritiladi, yana bir nuqtadan kontur yorug‘ligi yordamida inson tanasi yoritiladi. Fonning eng yorug‘ qismi ekspozitsiyani hisoblash uchun yorqinlik mo‘ljali bo‘lib xizmat qiladi.



Rasm 16. Siluetli portret.

Portretni xonada tabiiy kunduzgi yorug‘likdan foydalangan holda olishda ikki yoki undan ko‘proq deraza bo‘lishi kerak. Yorug‘lik tushadigan joylar bir yoki burchak hosil qiluvchi ikki devorda joylashgan bo‘lishi zarur.

Xonada kunduzi surati olinayotgani uchun ham, fon uchun ham yoritish sharoitini tanlash qiyin. Shuning uchun xonaga derazadan


tushayotgan yorug‘likni chizuvchi, to‘ldiruvchi yorug‘lik sifatida qabul qilish mumkin. Xonaning boshqa yorug‘lik yetishmayotgan qismlarini yorug‘lik akslantirgichlar (podsvetka) yoki elektr yoritish uskunalari bilan to‘ldirish mumkin. Suratga olish paytida yorug‘lik o‘zgarishlari tabiiy yorug‘lik manbalari yordamida tartiblanadi. Fon tusi, uning yoritilganlik darajasi suratga olinayotgan inson yuziga nisbatan yorug‘lik manбайдan qanchalik masofada joylashganligi bog‘liq bo‘ladi.

FOTOETYUDLAR

Fotoetyudlar asosan o‘quv maqsadlarini ko‘zlaydi, ya’ni fotosuratning kompozitsion tuzilishi usullarini ishlab chiqish, yoritish effektini yaratish, turli texnik imkoniyatlardan foydalanish uchun xizmat qiladi.

Ma’lum mavzuda etyudlar suratga olish talabalar uchun zaruriy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni egallash uchun muxim bosqich hisoblanadi.

Fotoetyudlar “Tong”, “Kuz”, “Shamol”, “Quyosh”, “Bahor” singari mavzularda suratga olinishi mumkin. Bunda ko‘p planli tuzilmalardan foydalanish, rakursda suratga olish, tus makonini hosil qilish singari ma’lum kompozitsion vazifa qo‘yilishi mumkin. Yoritishni o‘rnatishda yorug‘lik bilan yuzning xajmiy plastik shaklini ochish, suratga olinuvchining xususiyatlarini ta’kidlash kabilar bilan bog‘liq vazifalarni qo‘yish mumkin.



Rasm 17. Fotoetyud “Oltin kuz”.


ILOVALAR

KO'RGAZMALI KOMPOZITSIYA VA NATYURMORTLAR













MANZARA













ME'MORCHILIK, INTERYER








© Worldprints.com

PORTRET








































F.M.Dostoyevskiyning “Krotkaya” nomli asari asosida fotoraskadrovka







**O.Genrining “So‘nngi yaproq” nomli asari asosida
fotoraskadrovka**



ADABIYOTLAR

1. L.P.Diko, "Fotografik mahorat xaqida suhbat".
2. A.G.Simonov, "Sun'iy yorug'likda fotosurat tushirish".
3. YE.A.Iofis, V.G. Pell, "Fotografning ma'lumotnomasi".
4. L.D.Kurskiy, Y.D. Feldman, "Fotosuratga olishni o'rganish bo'yicha illyustratsiyalangan o'quv qo'llanma".
5. A.V.Fomin, "Fotografiyaning umumiy kursi".
6. K.V.Chibisov, "Umumiy fotografiya".
7. A.Garoxovskiy, "Tabiatni fotosuratga olish".
8. V.Nikulin, "Fotografiyadan 25 saboq".
9. B.Plushnikov, "Qiziqarli fotografiya".
10. B.Plushnikov, "Fotografiyada svetofiltrlardan foydalanish".

